

Fizika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish

Mamlakatimizda zamon talablari asosida fizikadan ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, texnika oliy ta'lim muassaslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali muhandislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak muhandislarga metodologik, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar asosida fizika fanini o'qitish ta'lim sifati va samaradorligini, muhandislik mutaxassisligiga xos sifatlarni oshishiga hamda loyihalash, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda, TIQXMMI katta o'qituvchisi Z.F.Beknozarova "Bo'lajak muhandislarni fizika o'qitish jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi ilmiy izlanishlari natijalarini amalda qo'llash ishlarini olib bormoqda.



Ya'ni 12-oktyabr 2021 yilda GTQ fakulteti 108-gurux talabalariga fizika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun "Loyixalash" usulida maruza mashg'ulotini tashkil etdi. Dars mashg'ulotida guruxning barcha talabarlari faol ishtirok etishdi. Xar bir talaba o'qituvchi tomonidan berilgan muommoni xal etish uchun mustaqil izlandi va bosqichma bosqich xal etish ko'nikmalarini faollashtirdi. Mashg'ulot o'yin tarzda savol javoblar bilan q'iziq'arli tarzda o'tkazildi. Dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etishdan maqsad, talabalarga fizika kursini o'qitish jarayonida zaruriy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va kasbiy faoliyatida mavjud muommolarni xal etishda loyixalash ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

TIQXMMI matbuot xizmati